

## SHEROBOD DOSTONCHILIK MAKTABI NAMOYONDALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20108452>

**Sunnatulla Eshmanov**

*Yunus Rajabiy nomidagi o'zbek milliy musiqa san'ati instituti  
Xalq ijodiyoti: Baxshi va doston ijrochiligi magistratura mutaxassisligi  
I - bosqich magistranti*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada Sherobod dostonchilik maktabining namoyondalari, baxshilarning an'analarini asrab-avaylash va rivojlantirishdagi beqiyos o'rni, ularning boy repertuarlari, ustoz-shogird an'analariga sadoqati, badihago'ylik mahorati haqida fikr yuritilgan.

### **Kalit so'zlar**

ustoz-shogird an'anasi, Sherobod dostonchilik maktabi, namoyondalari, chechan, baxshi, badiha, badihago'y.

### **Аннотация**

В данной статье рассматриваются представители Шерабадской школы дастанного исполнительства, их неоценимый вклад в сохранение и развитие традиций бахши, их богатый репертуар, преданность традиции «устоз-шогирд» (наставник-ученик), а также мастерство импровизации.

### **Ключевые слова**

Традиция «учитель-ученик», Шерабадская школа дастанного исполнительства, её представители, красноречивый оратор, бахши, импровизация, импровизатор.

### **Annotation**

This article discusses the representatives of the Sherobod school of epic storytelling, the incomparable role of bakhshis in preserving and developing traditions, their rich repertoires, their dedication to the master-apprentice tradition, and their skill in improvisation.

### **Keywords**

master-apprentice tradition, Sherobod school of epic storytelling, representatives, eloquent speaker, folk epic singer (bard), improvisation, improviser (extemporaneous performer)

Salkam chorak asrlik kuzatishlar, izlanishlar Sherobod dostonchilik maktabiga mansub bo'lmagan, shu maktabning yirik vakili Shernadan yoshi ulug'roq Alim baxshi va Abdurasul baxshilar yashaganini ko'rsatadi. Sherna bilan bir ustoz Qosimko'r yuzboshidan tahsil olgan Alim baxshi, Boymurod Boymat o'g'li, Norboy yuzboshi, Holiyor Abdukarim o'g'li, Normurod Poyon o'g'li, Eshqobil Qushoq o'g'li, Abdurasul baxshi (1827-1902), Sherdon Mardonqul o'g'li, Mirza Xo'jamurod o'g'li, Ismoil To'ra o'g'li (1884-1969) Ulash G'ozi, Mirzaqul yuzboshi, Mirza Eshmurod Sherdan o'g'li, Toshmurod Turob o'g'li (1897-1988) kabi shogirdlar yetishtirgani aniqlandi. Ular repertuarida boshqa maktab vakillarida uchramagan "Qoqixon", "Hotam poshsho", "Oyposhsha" dostonlari qayd etiladi [1.17-18.]. 1945-yilda bir grupp folklorshunoslar Qashqadaryo va Surxondaryo vohasida folklor ekspeditsiyasida bo'ladilar. A.Afzalov ekspeditsiya materiallari asosida «O'zbek xalq baxshilari» nomli maqolasini yozib, fanda birinchi marta Sherna Berdinazar o'g'li haqida quyidagilarni qayd etadi: "Sherna o'z davrining eng chechan, so'zga boy, san'atkor xalq shoirlaridan bo'lib, shogird yetishtirishda ham Shernaga tenglashadigan ustoz bo'lmagan. Shernazar shoir Surxondaryo va Qashqadaryo, hatto Turkmanistonning ayrim shahar va qishloqlariga borib, doston aytib, tinglovchilarni hayratda qoldirgan. Shu bilan xalq orasida o'z dostonlari bilan ma'lum va mashhur bo'lgan. Masalan, Mardonaqul Avliyoqul o'g'li (u Sherna shoirning jiyani), Ahmad yuzboshi, Saodat yuzboshi, Chori yuzboshi, Normurod Shernazar o'g'li, Jo'ra Eshmirza o'g'li, Xudoyqul laqay, Eson Shomurod o'g'li va boshqa talantli xalq shoirlarini tarbiyalab yetishtirgan Shernazar Berdinazar o'g'lidir" [2.].

Shernaning ustozlari XIX asrning ulkan dostonchisi Bobo shoirning shogirdi Qosim shoir bo'lgan. O'z navbatida, Sherna 18 ta shogird tarbiyalagan. Umuman, XIX-XX asrlarda Qashqadaryo va Surxon vohasida 200 ga yaqin xalq dostonchilari yetishib chiqqan. Ular ijodkor xalqimiz orasidan yetishib chiqqan qaynar buloqlar edi. Vohada yetishgan xalq baxshilarining peshvolaridan biri Sherna shoirni folklorshunoslardan hech biri ko'rgan yoki repertuaridagi asarlaridan yozib olgan emas. Chunki u 1855-yilda tug'ilib, 1915-yilda vafot etgan. Uning hayot va ijod yo'li shogirdlari ma'lumotlari asosida tiklandi.

Oqqo'rg'onlik Yusuf O'tagan o'g'lining (u Shernaning kuyovi ham jiyani - Mardonqul shoirning singlisining o'g'li) aytishicha: oqqurg'onlik Mamatqul Boyvachcha o'z sheriklari bilan kayfu safo qilib turganda, Sherna ular yonidan o'tib qolibdi. Ular Shernani to'xtatib: «Agar sen bizlarni yig'latsang, 500 tanga beramiz», - deyishibdi. Sherna shu zahoti xurjunidan qo'lga do'mbirasini olib: «Men hozir qishlog'ingdan kelayapman, ota-onang dunyodan o'tdi, mol-dunyo talon-taroj

bo'ldi, senlar kayfu safo qilayapsanlarmi!» deb kuylaydi-yu, ularni yig'latib, 500 tangasini olib ketibdi [3.35-38].

Sherna Berdinazar o'g'li zamonasining yetuk, kamolatga erishgan, tahsinlarga sazovor, boy repertuarga ega badihago'y dostonchisidir.

O'ziga xos ijro usuli bilan ajralib to'rgan yana bir benazir so'z ustasi Umir shoir Safarov Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanidagi G'ambir qishlogida 1894-yilda tug'ilgan. Uning otasi Safar baxshi hamda amakisi Boynazar baxshi o'z zamonasining iste'dodli shoirlari bo'lishgan. Umir shoir Safarov o'n olti yoshidan qo'lga do'mbira olib, dostonlarni, parchalarni aytish, termalarni takrorlash va yod olish bilan shug'ullangan. U doston aytishni o'z otasidan o'rganib, keyinchalik Surxondaryolik mashhur baxshi Shernazar Ernazar o'g'liga (1855-1915-yillar) shogird tushgan. Bundan tashqari, Safar yuzboshi, Boynazar yuzboshi (XIX asrning II yarmi XX asrning boshlari) kabi ustoz baxshilar ham uning yirik baxshi-shoir bo'lib yetishishida muhim rol o'ynashgan. Shoirning amakilari, yaqin-qarindosh urug'lari Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanidagi Torqapchig'ay, Yetimquduq qishloqlarida yashashgan. U 1918-yili Torqapchig'ayga, 1925-yili Yetimquduqqa ko'chib kelib, umrining oxirigacha shu yerda yashagan.

Do'stlar, men yashardim hozirgi paytda,

Belga yangi quvvat yana ham qaytdi.

Baxtimni kuylayman har bitta baytda,

Shon-shuhratini kuylayotgan kunlarim.

Bu satrlar Umir shoirning «Kunlarim» termasidan olingan [4.28-30.].

Umir shoir ana shunday o'ziga xos, har jihatdan o'rganishga loyiq dostonchilik maktabi xususiyatlarini o'zining barkamol ijodi va rang-barang repertuari orqali bizgacha olib kelgan ulkan san'atkorlardan biridir.

Umir shoir uch yoshida otadan yetim qoladi. U bu davrdagi hayotini keyinchalik shunday kuylagan edi:

Sag'irlikda kiydim men tilab janda,

Hech mehribon bo'lmadi menga u kunda.

Baxtimga onam bor ekan sho'r, zinda

Sarsonlikda kezib yurgan kunlarim.

Mana shunday og'ir hayotda, uning o'zi aytganidek, «noniga mardikor bo'lgan kunlarida» ham u baxtli edi. Bu baxtni unga ummondek qaynar buloq xalqimiz ijodi, hamisha yangroq sehrli do'mbira ovozi berdi. O'n to'rt yoshida xalq termalarini maroq bilan kuylash darajisiga ko'tarilgan bo'lg'usi dostonchi Umir Safarov zamonasining mashhur baxshilaridan bo'lgan amakisi Boynazarning maslahati bilan Sherobodning Istara qishlog'idan bo'lgan g'oyatda chechan yuzboshi Sherna Beknazar o'g'liga sakkizinchi shogird bo'lib tushdi. U Shernadan

dostonchilik sirlarini, uning repertuaridagi asarlarni birin-ketin to'la o'zlashtirdi va elimizga tanilgan dostonchi bo'lib yetishdi.

T.Mirzaev Umir shoirdan yozib olingan adabiy meros haqida quyidagi fikrlarni keltiradi. "Umir shoirdan bizga boy adabiy meros qoldi. Undan olti xalq dostoni - «Alpomish», «Oyparcha», «Balxuvon», «Zandigor», «Nurali» va «Moyguliston» yozib olingan. Bular shoirning dostonchilikdagi o'rnini belgilashda kamday ko'rinishi mumkin. Ammo shuni ta'kidlamoqchimizki, ulardan ikkitasi, ya'ni «Balxuvon» va «Zandigor» faqat Umir shoir tufayli bizgacha yetib kelgan. Mana shu faktning o'ziyoq Umir shoirdan yozib olingan adabiy meros qanchalik ilmiy va ma'rifiy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib turibdi. Bugina emas. Boshqa ko'pgina baxshilardan yozib olingan dostonlarning Umir shoir varantida o'ziga xos xususiyatlariga, ba'zan ancha qadimiy motivlariga duch kelamiz. Birgina misol. Qahramonlik eposlarining mustahkam an'alariga ko'ra, qahramon muayyan jasorat ko'rsatgandan keyingina jangovar otga erishishi kerak. Bunda qahramon ham, uning doimiy yo'ldoshi - jangovor oti ham sinovdan o'tadi. Mana shunday qadimiy motiv «Alpomish» dostonining Umir shoirdan yozib olingan variantida saqlanib qolgan. Unda tasvirlanishicha, Alpomish Qultoyni kurashda uch marta yiqitgach, Boychiborni tanlashga ruxsat etiladi. Bunga o'xshagan faktlar faqat XX asrdagina yozib olingan boshlangan, ammo juda qadimda yaratilgan xalq dostonlarining ijodiy tarixini belgilash uchun g'oyatda muhimdir" [4.28-30].

Umir Safarovdan yozib olingan adabiy merosning kattagina qismini xalq termalari tashkil etadi. Xalq baxshilari orasida eng ko'p terma aytib bergan dostonchi Umir shoir hisoblanadi. Undan «Kunlarim», «Do'mbiram», «Sur davron», «So'ng», «Ayting», «Biladi», «Yaxshiroq», «Ne bilsin», «Bo'lar», «Bilan», «Tilar», «Ayrilsa», «Bul» kabi yigirmadan ortiq termalar yozib olingan.

Umir Safar o'g'li kuylab kelgan asarlarni yozib olish ishlari 1949-yildan boshlangan. Umir shoirdan yozib olingan asarlarni har tomonlama o'rganish, ularning eng yaxshilarini nashr etish kelgusidagi muhim ishlardan biridir.

Umir shoir Safarovning repertuarida "Alpomish", "Tarkibadaxshon", "Oltin qaboq", "Oyparcha", "Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Zandigor", "Shirin-Shakar", "Malla savdogar", "Yozi bilan Zebi", "Balxuvon", "Kelinoy", "Suv parisi", "Avazxon", "Nurali", "Ravshan", "Moyguliston", "Gulnor pari", "Malika ayyor", "Avazning Uzumko'z parini olib kelishi", "Mozandara", "Mirzacho'l", "Ulug'oy", "Toshgul", "Qoraqum", "Dastugul" kabi dostonlar mavjud bo'lgan. Uning repertuarida folklor asarlarini yozib olishda X.Zarifov, O.Sobirov kabi folklorshunoslar, tilshunos olim S.Ibroximov, havaskor folklor to'plovchi Chori Hamroning xizmatlari katta bo'lgan.

O'zi jo'shib kuylagan benazir dostonlar-u, hayotbaxsh termalar bilan el orasida dong qozongan taniqli baxshi Umir shoir Safarov 1967-yilda vafot etgan [5.490-491.].

Sherobod dostonchilik maktabining yana bir namoyondasi Chori Umirovdir. U 1938-yilda Qashqadaryo viloyati, Dehqonobod tumani, Yetimquduq qishlog'ida atoqli xalq dostonchisi Umir Safar o'g'li xonadonida tug'ilgan. Dehqonobod tumani markazidagi o'rta maktabni tamomlagach, shu maktabda 1969-yilgacha o'qituvchilik qilgan. Bir muddat Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutida sirdan o'qigan. 1969-yilda Surxondaryo viloyatining Muzrabod tumaniga ko'chadi va dexqonchilik bilan shug'ullanadi. Dostonchilikni otasi Umir shoirdan o'rgangan.

Undan "Tarkibadaxshon", "Malla savdogar", "G'oyibnoma", "Sherali", "Sheralining uylanishi", "Mohiguliston", "Temurbeknin tug'ilishi va bolaligi", "Erali" kabi dostonlar yozib olgan. Ko'plarini o'zi yoddan yozib chiqqan va Folklor arxiviga topshirgan. Ulardan "G'oyibnoma" (2010), "Temurbekning tug'ilishi va bolaligi" (2011), "Erali" dostonlari, "Ustoz baxshi duosi" (2011) nomida termalari nashr etilgan. 2017-yilda "O'zbekiston xalq baxshisi" unvoni bilan taqdirlangan [6.475.].

Abdunazar Poyonov baxshichilik faoliyatini 1980-yildan boshlagan. 1985-yildan buyon viloyat, respublika, xalqaro baxshi-shoirlar ko'rik-tanlovlarida va Festivallarida ishtirok etib keladi. Abdunazar Poyonov Chorsha (Chor-shambi) baxshi, Mardonaqul Avliyoqul o'g'lining shogirdi, Qodir shoir (Dehqonobod), Nazar baxshi (Sherobot), Boymurot baxshi Boymat o'g'li (sherobotning Qulliqsho qishlog'i), Niyozali baxshi, uning o'g'li Xudoyquldan (Sherobotlik), Chori Qiyom (Angar tumanining Kayrangi qishlog'i), Xolyor baxshi Alim baxshining o'g'li (beshqotonlik), Normurot baxshi, G'oyim baxshi (Jarqo'rg'on tumanining Minor qishlog'i), Sho'rchida Eshqobil baxshi kabi bir qator baxshilardan doston, terma va do'mbira ohanglarini o'rgandi.

Abdunazar Poyonov "Go'ro'g'lining tug'ilishi va o'smirligi" dostonini baxshi Qodir shoir ijrosidan va bir qator keksa tinglovchilardan tinglab, to'ldirib o'ziga xos ko'rinishda ijro etgan.

Abdinazar baxshidan "Alpomish", "Rustamxon", "Oltin qaboq", "Sanam Gavhar", "Avazxonning tug'ilishi", "Xonoyim pari", "Ollanazar Olchinbek", "Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Kelinoy" dostonlari yozib olingan.

Abdunazar Poyonov Gulboy Mirzaev, Muhammad Eshboev, Shernazarova Zulxumor, Sherali Jumaev, Ilxom Norov, Sherali Xo'jamberdiev va boshqa baxshilarga ustozlik qilgan. U 2003-yilda "O'zbekiston Xalq baxshisi" yuksak unvonga sazovor bo'lgan [7.571-572.].

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ergashev A. Sherobod dostonchilik maktabi. Fil.f.nom.diss. T.: 1991.
2. Afzalov M. O'zbek xalq baxshilari. "Sharq yulduzi" jurnali, 1946, 10-11 son.
3. Qahharov A. Dostonchi Sherna haqida. «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali 1984-y, 3-son.
4. Mirzayev T. Umir Safar o'g'li va uning o'zbek dostonchiligida tutgan o'rni. «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali 1984-y, 4-son.
5. Umir shoir Safarov. O'zbek xalq ijodi yodgorliklari. J.8: - G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.
6. Chori Umirov. O'zbek xalq ijodi yodgorliklari. J.28: - G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.
7. AXMEDOVA, O. O 'ZBEK MAROSIM-UDUMLARINING ETNOHUDUDIY XUSUSIYATLARI.
8. Ахмедова, О. М. (2010). Освещение фольклорных религиозных мотивов в средствах массовой информации (на примере печати и радиовещания Узбекистана). *Филологические науки. Вопросы теории и практики*, (3), 35-38.
9. Avazova, M. E., & Axmedova, O. M. (2021). TOSHKENT VILOYAT OHANGARON TUMANI YOR YOR QO'SHIQLARINING O'ZIGA XOS POETIKASI. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 196-201.
10. Akhmedova, A. (2021). Historical syncretism of folklore and media. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 335-340.
11. Ахмедова, О. (2026). Соотношение традиции и импровизации в узбекском народном эпосе: Interplay of Tradition and Improvisation in Uzbek Folk Epic. *Journal of national culture*, 2(1), 150-156.
12. Shermanov, E. (2021). Role of mass media in the formation of participatory education in the context of globalization.
13. Saidovich, J. S., Uralovich, S. E., Kurbanov, A., & Erkinovna, A. N. (2022). The role of cinema in the system of education.
14. Shermanov, E. (2024). Talabalarning madaniy daxldorlik fazilatini sun'iy intellekt vositasida o'qitish texnologiyalari. *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI*, 1(8).

15. Shermanov, E. (2024). Madaniy intellektning ijtimoiy soha mutaxassislarini tayyorlash jarayonidagi integratsion roli. *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI*, 1(8).
16. Shermanov, E. U. Madaniy Kompetentlikni Rivojlantirishda Daxldorlik Fazilatining O'rni Va Ta'siri. *Maktabgacha va Maktab Ta'limi Jurnal*, 676322.
17. Shomuradovich, N. A. (2022). MAHALLA AS A MUSICAL PLATFORM. *Проблемы современной науки и образования*, (8 (177)), 120-123.
18. Sh, N. A. (2021). MAHALLA IS A HOTBED OF EDUCATION FOR THE YOUNGER GENERATION. *Проблемы современной науки и образования*, (12 (169)), 106-109.
19. Alfiya, Q. (2023). Milliy Musiqa San'ati Va Yoshlar Tarbiyasi. *Journal of Creativity in Art and Design*, 1, 16-20.
20. Qizi, A. N. F. (2022). ALISHER NAVOIY VA MUSIQA. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(Conference DSMI), 252-555.
21. Kolkanatov, A. (2023). IFTIKHORI TIMSOLI TUMOR BRANCH. *JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH*, 2, 67-69.
22. Nazarbai, K. A. (2023). NEW VOICE IN UZBEK DIRECTION. *Journal of Innovation, Creativity and Art*, 2, 65-70.
23. Kolkanatov, A. (2025). The Need to Improve the Performance of Cultural Centers. *Turkology*, (2).
24. Qolqanotov, A. (2026). NATIONAL SONGS AS A SPIRITUAL NEED. *AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE*, 4(2), 86-91.
25. Рахимов, Б. М., & Худайберганова, М. А. (2017). О роли музыки в жизни человека. *Молодой ученый*, (31), 74-77.
26. Oripova, R. I. Ways to develop the pedagogue's competence in improving the quality of education. StoneDAU. *Pedagogy, psychology and teaching methodology*.
27. Ibrohimovna, O. R. (2021). Tips system in module education. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(2), 382-385.
28. Орипова, Р. (2022). ИНТЕГРАЛЛАШГАН ТАЪЛИМДА ТЕХНОЛОГИЯЛАР. *Oriental Art and Culture*, 3(4), 877-888.
29. Орипова, Р. И. (2023). Касбий таълимда фанлаоро алоқадорликни таъминлаш масалалари. *Oriental Art and Culture*, 4(2), 750-754.